

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QURILISH  
CHIZMACHILIGI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QURILISH CHIZMACHILIGI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Qurilish chizmachiligi fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Qurilish chizmachiligi**

- 1.Chizma geometriya va muhandislik grafikasi.
- 2.Qurilish chizmachiligi.
- 3.Qalamtasvir –rangtasvir.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

| T/r | Mazmun sohalar                              | Konstruktlar   | Testlar soni |
|-----|---|--|--------------|
| 1   | Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. | Chizmachilik faning qisqacha tarixi, to'g'ri burchakli proyeksiyalash. Ortogonal proyeksiyalarni qayta tuzish usullari. Ko'priklar, sirtlar topografik va qurilish chizmachiligi bilishi hamda mutaxassis chizma geometriya qoidalari va chizmachilik standartlarining talablariga asosan buyumning chizmasini mustaqil tuzishi va uni to'g'ri o'qishi, chizmalardan mohirona foydalanib, o'z fikrini bayon eta olishi lozim   | 21 ta        |
| 2   | Qurilish chizmachiligi.                     | Binolar qo'llanilishiga ko'ra fuqaro, sanoat va qishloq xo'jalik guruhlariga bo'linadi. Fuqorolik binolari kishilarning maishiy va jamoat ehtiyojlari uchun quriladi. Ular aholi yashaydigan turar joylar va jamoat (maktablar, kinoteatrlar, kasalxonalar) binolariga bo'linadi. Sanoat binolari ishlab chiqarish qurilmalarini joylashtirish va mehnat operatsiyalarini bajarish uchun qo'llaniladi. Ular sanoat va transport ehtiyojlari (fabrika, zavodlar, elektrostansiya, qozonxonalar, temir yil depolari, garajlar) uchun foydalaniladi. Qishloq ehtiyojlarining xo'jalik (hayvonlar, binolari qushlar, qishloq qishloq xo'jaligi xo'jalik mahsulotlari, zaharli ximikatlar va o'g'itlar, qishloq xo'jaligi mashinalarini ta'mirlash uchun) foydalaniladi. Har qanday bino yoki inshootni qurish loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi va mazmunini SNiP ko'rsatmalari asosida aniqlanadi. Loyiha buyurtmachisi shartnoma qoidalariga binoan loyihalash tashkilotlari bilan o'zaro shartnoma tuzadi. Loyiha topshirig'ini bosh loyihachi ishtirokida buyurtmachining o'zi tuzadi. Loyihalashning birinchi bosqichida qurilishning smeta narx qurilish maydoni tiklanadi. Ikkinchi bosqichda loyihani tasdiqlanganligiga asoslanib ishchi hujjatlar ishlab chiqiladi. Ishchi loyiha tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asosnomalar va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar asosida ishlab chiqiladi. Ishchi loyiha ekspertizalash va qurilish | 11 ta        |

|    |                           |   |      |
|----|---------------------------|---|------|
|    |                           | montaj ishlari uchun foydalaniladi jarayonlarini bilish, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.  |      |
| 3. | Qalamtasvir – rangtasvir. | Uy ro'zg'or buyumlarning qoralamasi.Geometrik formalar qoralamasiYuz qismlari qoralamasi (Burun, lab, ko'z va quloq)Yuz qoralamasi .Gipsli boshning qoralamasi.Figuraning naturadagi qoralamasi...Arxitekturaviy kompozitsiyaning qoralamasi.Figuraning interyerdagi qoralamasi bilish va o'rgatishi lozim. | 8 ta |

### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

| T/r | Kognitiv daraja        | Izohi   | Ulushi (%) |
|-----|------------------------|---|------------|
| 1.  | <b>Bilish</b>          | Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish  | 20 %       |
| 2.  | <b>Qo'llash</b>        | O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish                       | 60%        |
| 3.  | <b>Mulohaza qilish</b> | Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish | 20 %       |

### VI. Test turlari va taqsimoti

| T/r | Test turi | Izohi   |
|-----|-----------|---|
| 1.  | Y1        | To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test                                 |
| 2.  | Y2        | Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test |
| 3.  | Y3        | Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test  |
| 4.  | Y4        | Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test                |

## **VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt**

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## **VIII. Imtihon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. S.S.Saydaliyev Chizma Geometriya Va Muhandislik Grafikasi (Toshkent arxitektura qurilish instituti uchun o'quv qo'llanma) Toshkent 2017

2. S.S.Saydaliyev, M.M.Xamroqulova "Muhandislik Grafikasi" {Qurilish chizmachiligi} Darslik. Toshkent. 2017

3. N.X.Gulomova "Chizmachilik" Toshkent 2019

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.